

“YURISPRUDENSIYA” TA’LIM YO‘NALISHI UCHUN SUHBAT SAVOLLARI

№	SAVOLLAR
I-mavzu. Mamlakatda huquqshunoslik sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.	
1.	Mamlakatimizda notariat sohasida olib borilayotgan islohotlarni aytib bering.
2.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston - ijtimoiy davlat, deb belgilab qo‘yildi. Bu nimani anglatadi.
3.	O‘zbekiston Respublikasida saylov sohasida amaga oshirilgan islohotlarni amaliy misollar bilan tushuntiring.
4.	O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi nimani anglatadi.
5.	Mamlakatimizda advokatura sohasidagi bo‘layotgan islohotlarga sizning fikr mulohazangiz.
6.	Konstitutsiyada “Ijtimoiy adolat” prinsipining aks ettirilishi jamiyat hayotida qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.
7.	O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi deganda nimalar tushuniladi, uning ahamiyati qanday?
8.	“Aybsizlik prezumpsiyasi” tushunchasi va mazmun – mohiyati nima hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga “Aybsizlik prezumpsiyasi”ga oid qanday yangiliklar kiritildi.
9.	Konstitutsiyaning yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi to‘g‘risidagi qoidani belgilash nima uchun zarur.
10.	O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi sifatida xalqaro shartnomalarning tan olinishiga doir qoidaning Konstitutsiyaga kiritilganligining ahamiyati nimada.
11.	O‘zbekiston Konstitutsiyasining birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, Konstitutsiyaning birinchi bo‘limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emasligini belgilashning ahamiyati nimada.
12.	Konstitutsiyaga tashqi siyosatning asosiy prinsiplaridan biri sifatida “chegaralarning buzilmasligi” prinsipining kiritilganligi qanday ahamiyatga ega.
13.	Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart, degan yangi konstitutsiyaviy norma qanday mazmun va ahamiyatga ega.
14.	O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqligi nimani anglatadi.
15.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlar huquqlarini ta’minlash bo‘yicha qanday normalar belgilangan.
16.	Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi to‘g‘risidagi normaning Konstitutsiyaga kiritilishi nimani anglatadi.
17.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartibini yoritir.
18.	“Insonga nisbatan davlat organlari tomonidan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli va mutanosib bo‘lishi kerak”, degan konstitutsiyaviy qoidaning mazmun –mohiyati nimalardan iborat.
19.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday madaniy va ekologik huquqlar mustahkamlab qo‘yilgan.
20.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday shaxsiy huquq va erkinliklar mustahkamlab qo‘yilgan.
21.	“O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” tamoyillarini mustahkamlash, iqtisodiy islohotlar jarayonida inson manfaatlarini ta’minlash bosh mezon bo‘lishini ta’minlashning asosiy

	maqsadi nimadan tashkil topgan.
22.	Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida sud-huquq sohasida belgilangan keng ko'lamli vazifalar nimadan iborat.
23.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalarini tahlil qiling.
24.	Inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar implementatsiyasida BMT konvensiyaviy hujjatlari muhim ahamiyatga ega. Aytingchi, O'zbekiston bu borada qanday amaliy ishlar va islohotlar amalga oshirmoqda.
25.	So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan Konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy maqsadi va ularning muhim g'oyasi.
26.	O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning huquq va burchlari deganda nimani tushunasiz. Inson huquqlari haqida xalqaro hujjatlarni sanab o'ting.
27.	Taraqqiyot strategiyasining "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" yo'nalishiga maqsad va vazifalarining keng ko'lamligi va muhim jihatlarni tushuntirib o'ting.
28.	Ochiqlik, shaffoflik, oshkoralik usullari faoliyati hozirgi islohotlar jarayonidagi o'rni va uning tashkilotlardagi muhim elementlarini tahlil qiling.
29.	Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolar qanday ishtirok etadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan islohotlar zahirida tushuntirib bering.
30.	Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari tizimi deganda nimani tushunasiz va Konstitutsiya normalarini tahlil etgan holda uning mazmunini yoritib bering.
31.	Hozirgi kunga qadar Konstitutsiyamizga necha marotaba qo'shimcha o'zgartirishlar kiritilgan. So'nggi yillarda kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni keltirib o'ting.
32.	O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi islohotlari nimalarda aks etadi.
33.	Gender tenglik deganda nima tushunasiz. Yangi O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash borasida qanday amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda.
34.	Davlat xizmatlari markazlarining asosiy vazifalari va "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyilining asosiy mazmuni yoritib bering.
35.	O'zbekiston Respublikasida Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi amalga oshirilgan islohotlarni yoritib bering.
36.	O'zbekiston Respublikasida prokuratura sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
37.	O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmagan huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
38.	O'zbekiston Respublikasida advokatura sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
39.	O'zbekiston Respublikasida oila huquqi sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
40.	O'zbekiston Respublikasida vorislik huquqi sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
41.	O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
42.	Ayrim davlatlarda konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar faqat referendum o'tkazish yo'li bilan kiritiladi. Bunday tartibning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibiga nisbatan qanday salbiy va ijobiy jihatlari mavjud deb o'ylaysiz.
43.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 135-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi sudyalari hamjamiyatining mustaqil organi bo'lib, u

	sudyalar korpusining shakllantirilishini, sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlaydi. "Sudyalarning hamjamiyati" o'z mazmuniga ko'ra sudyalar jamoat birlashmasining bir ko'rinishidir. Mazkur organ tomonidan sudyalar korpusini shakllantirilishining konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlarini yoritib.
44.	Konstitutsiyaviy huquqda asosan ikki yirik huquq instituti, ya'ni inson huquqlari hamda davlat hokimiyatini tashkil etish va uni amalga oshirish bilan bog'liq institutlar mavjud. Ushbu institutlarning o'zaro nisbati qanday va ular o'rtasidagi munosabatlar nimalarda namoyon bo'ladi.
45.	Konstitutsiya ijtimoiy hayotning barcha sohalariga nisbatan ta'siriga ko'ra, bir qator funksiyalarga ega. Ushbu funksiyalarning bir-biriga nisbatan aloqasi bor, deb hisoblaysizmi. Agar ular o'rtasida aloqa mavjud bo'lsa, u nimalarda aks etadi.
46.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur qoidani batafsil tushuntirib bering.
47.	O'zbekiston Respublikasida parlament islohotlarining tarixiy zaruriyati xususida o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring.
48.	Huquq ustuvorligi va Konstitutsiyaning ustunligi o'rtasida qanday farq bor deb o'ylaysiz.
49.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 17-moddasida O'zbekiston tashqi siyosatda asoslanadigan qoidalar mustahkamlangan. Ulardan biri davlatlarning suveren tengligi qoidasidir. Sizningcha, mazkur qoida davlatning ichki suverenitetiga nisbatan qanday ta'sirga ega.
50.	O'zbekiston Respublikasida ekologiya huquqi sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
51.	O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik huquqi sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
52.	O'zbekiston Respublikasida advokatura sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
53.	O'zbekiston Respublikasida istemochilar huquqlari sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
54.	O'zbekiston Respublikasida jinoyat huquqi sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
55.	O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
56.	Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mehnat huquqi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qiling.
57.	Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qiling.
58.	Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qiling.
59.	Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud hokimiyati tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qiling.
60.	O'zbekiston Respublikasida ma'muriy hududiy tuzilish sohasida amalga oshirilgan huquqiy islohotlarni tahlil qiling.
61.	O'zbekiston Respublikasida parlament islohotlarining tarixiy zaruriyati xususida o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring. Ushbu islohotlarni bosqichlarga bo'lib muhokama qiling.
62.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 66-moddasiga binoan mulkdan foydalanish davlatning huquqlari va qonun bilan qo'riqlandigan manfaatlarini buzmasligi shart ekani belgilangan. Ushbu huquq normasini qanday tushunish lozim deb o'ylaysiz? Fikringizni amaliy misollar yordamida bayon eting.
63.	Inson huquq va erkinliklari kafolatlari tushunchasining mazmun-mohiyati nimalardan iborat hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi qanday

	dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan? Sizningcha buning mohiyati nimadan iborat? Fikringizni misollar yordamida ifodalang.
64.	Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari tizimi deganda nimani tushunasiz va Konstitutsiya normalarini tahlil etgan holda uning mazmunini yoritib bering. Sizningcha kafolatlar tizimi inson huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun qay darajada muhim? Fikringizni konstitutsiyaviy huquqiy normalar asosida misollar yordamida asoslang.
65.	Inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishida davlat hokimiyati va demokratik institutlar muhim o'rin tutadi. Sizningcha mazkur jarayonlarda ishtirok etuvchi davlat hokimiyati va demokratik institutlar maqsadi va vazifalarini amaliy misollar asosida yoritib bering.
66.	Sud tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishi degandan nimani tushunasiz va uning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Fikringizni misollar yordamida ifodalang.
67.	Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalar huquqlarining davlat himoyasi deganda nimani tushunasiz hamda Konstitutsiya normalarini tahlil etgan holda fikringizni hayotiy misollar bilan bayon eting.
68.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 65-moddasiga ko'ra "Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidir". Xususiy mulkning daxlsizligi deganda nimani tushunasiz? Fikringizni amaliy misollar yordamida bayon eting.
69.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 42-moddasiga binoan har bir shaxs adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega. "Adolatli mehnat sharoitlari deganda" nimani tushunasiz? Fikringizni amaliy misollar yordamida bayon eting.
70.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-moddasiga binoan har bir shaxs madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqiga ega. Ushbu huquqning mohiyati nimadan iborat? Fikringizni amaliy misollar yordamida bayon eting.
71.	Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqini ta'minlovchi maxsus qonun va qonunosti hujjatlar tizimini ko'rsatib bering?
72.	O'zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi va «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar qaysi turdagi shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan.
73.	Bugungi globallashuv jarayoni dunyoning turli mamlakatlarini integratsiyaga chorlamoqda. Bunda, davlat suverenitetining ahamiyati qanchalik muhim deb hisoblaysiz?
74.	Mamlakatimizda huquq ustuvorligini ta'minlashda huquq ustuvorligi elementlaridan qaysi biriga ko'proq ahamiyat berish kerak deb o'ylaysiz?
75.	Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar va konstitutsiyaviy huquq manbalari o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud deb o'ylaysiz? Fikringizni misollar yordamida ifodalang.
76.	Garchand "konstitutsiya" so'zi XVIII keng iste'molga kirib kelgan bo'lsa-da, ushbu tushuncha avvallari siyosiy tuzum ma'nosida ham ishlatilgan. Ushbu ma'noning konstitutsiyaning zamonaviy ta'rifi qay darajada bog'liq deb o'ylaysiz?
77.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingach u asosida ko'plab boshqa qonunlarni qabul qilish kerak edi. Bunda, yetarlicha qonunchilik tizimini yaratish vaqt talab qilardi. Ushbu holatda bevosita Konstitutsiya bilan tartibga solinmagan munosabatlar qanday tartibga solingan deb o'ylaysiz?
78.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasi qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz? Agar u mavjud bo'lmagan taqdirda ushbu holat Konstitutsiya bilan tartibga solinadigan munosabatlarga qay darajada ta'sir qilar edi, deb o'ylaysiz?
79.	Qonunchilikdagi kolliziya tushunchasi va ularni bartaraf etish yo'llarini tahlil qiling.
80.	Davlat boshqaruvining shakli sifatida aralash respublikaning o'ziga xos xususiyatlari tushuntirib bering.

81.	O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi shaklining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib.
82.	Huquq ustunligi konsepsiyasi mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
83.	Normativ-huquqiy hujjatlar turlarini yuridik kuchi jihatidan bayon qiling.
84.	Bugungi kunda davlat funksiyalarining rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni misollar bilan tushuntiring.
85.	Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning zarur sharti sifatida huquqiy tarbiyaning ahamiyatini tushuntiring.
86.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi va tuzilishini aytib bering.
87.	Moliya va bank tizimining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari
88.	Sud-huquq islohoti natijasida sudlarning fuqarolar huquqini himoya qilish vazifasi qanday kuchaydi?
89.	Hokimlarning maqomi qanday? Hokimlar lavozimiga qanday tayinlanadi va ozod qilinadi.
90.	O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi qanday tashkil qilingan?
91.	O'zbekistonda Parlamentning vujudga kelishi va parlament islohotlarini tavsiflab bering.
92.	Qoraqalpog'iston huquqiy maqomimni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan izohlab bering.
93.	Bolalar huquqlarining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari.
94.	Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining huquqlarining kafolatlanishining Konstitutsiyaviy asoslarini tavsiflab bering.
95.	Huquq va erkinliklarni himoya qiluvchi, ta'minlovchi qanday tuzilmalar mavjud?
96.	O'zbekistonda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlarini ta'minlash masalalari qanday amalga oshirilmoqda.
97.	"Xabeas korpus" – Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklardan mahrum etish va cheklash tartibini yoritib bering.
98.	Fuqarolik to'g'risidagi ishlarni yurituvchi davlat organlari va ularning vakolatlari.
99.	Umumiy yurisdiksiya sudlari qanday tashkil qilinadi va ularning tizimini tushuntiring.
100.	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari referendumni o'tkazish tashabbusi subekti hisoblanadimi? Referendumni o'tkazish tashabbusi subektlarini sanab bering.
II-mavzu. Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)	
1.	Yurisprudensiya sohasida bo'lajak mutaxassis qanday shaxsiy sifatlar va kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
2.	Yurisprudensiya sohasini tanlashda ijtimoiy muhit qanchalik muhim deb o'ylaysiz.
3.	Yurisprudensiya sohasida qanday kasbiy va insoniy qadriyatlar ustun bo'lishi kerak.
4.	Yurisprudensiya sohasida mutaxassisning jamiyat hayotidagi o'rnini qanday baholaysiz.
5.	Yurisprudensiya sohasini rivojlantirishda mutaxassislarning kasbiy salohiyatlari qanchalik darajada muhim.
6.	Yurisprudensiya sohasida "karyera zinapoyasi" imkoniyatlarini qanday tasavvur qilasiz.
7.	Yurisprudensiya sohasida obyektiv va subyektiv qarash deganda nimani tushunasiz.
8.	Yurisprudensiya sohasida qonuniylik va xolislik prinsiplari haqida gapiring.
9.	Yurisprudensiya sohasida mutaxassisning kasbiy prinsiplari haqida gapiring.
10.	Yurisprudensiya sohasida mutaxassis faoliyatida qanday motivatsiyalar bo'lishi kerak.
11.	Yurisprudensiya sohasini tanlashda siz uchun muhim jihatlar nimalarda namoyon bo'ladi.
12.	Yuridik tashkilotlarda kasbiy va axloqiy qoidalarni birlashtirish amaliyoti qanday amalga oshiriladi.
13.	Yuridik jamoalarda liderlik va mas'uliyat taqsimotining korporativ madaniyatga ta'siri qanday.
14.	Yurisprudensiya sohasida intizom va etika qanday tashkil etiladi.
15.	Huquqshunolar o'rtasida jamoaviy ishlash madaniyatini rivojlantirishda nimalarga e'tibor

	berilishi kerak.
16.	Yurisprudensiya sohasida faoliyat yuritish siz uchun qanchalik ahamiyatli deb hisoblaysiz.
17.	Nima sababdan siz yurisprudensiya sohasini tanlayapsiz, tanlovingizni faktlar bilan izohlang.
18.	Yuridik ixtiloflarning tushunchasi, sabablari va oqibatlari haqida fikringizni bildiring.
19.	Yuristda ijobiy qiyofani rivojlantirish uchun moslashuvchi ko'nikmalarning ahamiyati qanday. O'z hayotingizdan kelib chiqib misollar keltiring.
20.	Yuridik kadrlarning yurtimizda adolatli jamiyat barpo etish va mamlakatimizning xalqaro obro'si yuksalishidagi roli.
21.	Mutaxassislarning taym-menejment bo'yicha qanday muhim tavsiyalari bor.
22.	Nima uchun huquq sohasida ham ta'sirchan nutqning, notiqlikning o'rni va ahamiyati katta.
23.	Yuridik faoliyatda nutq so'zlashning qanday uslublarini farqlash mumkin.
24.	Omma oldidagi yuridik nutqning asosiy qismlari va ularning maqsadini bayon qiling.
25.	Huquqshunos nutqi tinglovchining diqqatini tortishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak.
26.	Huquq sohasida tanqidiy fikrlashning ahamiyati.
27.	Auditoriya diqqatini jalb qilish uchun qanday usullardan foydalangan ma'qul.
28.	Huquqshunos kasbiga qo'yilgan talablar va majburiyatlarni atroflicha tahlil qiling.
29.	Kreativlik nima va uning yurist faoliyatidagi ahamiyatini yoritib bering.
30.	Xalqaro huquq normalarini ratifikatsiya qilish va ularning O'zbekiston qonunchiligidagi tutgan o'rni.
31.	Huquqshunosning tashabbuskorligi, kreativligi va masalaga ijodiy yondashuvi faqat qonunlar doirasida, ularga amal qilgan holda qo'llanilishi lozim, degan talabni izohlab bera olasizmi.
32.	Yurist kasb etikasining eng muhim xususiyatlarini tavsiflang.
33.	Huquqiy islohotlarning asosiy yo'nalishi sifatida huquqiy sohada liberallashtirishning mohiyatini izohlab bering.
34.	Huquq sohasida kreativlik deganda siz nimani tushunasiz. Uning ijodkorlik tushunchasi bilan o'xshash va farqli jihatlarini ajratib bera olasizmi.
35.	Huquqiy munosabatlarida yuridik etiket qanday namoyon bo'ladi.
36.	Yuristda ijobiy qiyofani rivojlantirish uchun moslashuvchi ko'nikmalarning ahamiyati qanday. O'z hayotingizdan kelib chiqib misollar keltiring.
37.	Sudyalik kasbida xolislik, adolatparvarlik, halollik prinsiplari.
38.	Yuridik kadrlarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish qanday ahamiyat kasb etadi.
39.	Ombudsman instituti va uning faoliyatini tahlil qiling.
40.	Qonun va konstitutsiyaviy qonunlarining o'zaro nisbatini va farqli tomonlarini muhokama qiling.
41.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini qonunchilik doirasida yoritib bering.
42.	Sukut saqlash huquqi hamda uning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari.
43.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati tarqatib yuborish huquqiga ega subyektlarni tahlil qiling.
44.	O'zbekiston Respublikasida ijro hokimiyatning tuzilishi va uni shakllantirish tartibi haqida ma'lumot bering.
45.	Yuridik yordamning davlat hisobidan ko'rsatilishini tahlil qiling.
46.	Siyosiy huquqlarning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslariga tavsif bering.
47.	Huquqiy ekspertizani amalga oshirishda yurist kasbining ahamiyatini tahlil qiling.
48.	Moddiy huquq va protsessual huquqning o'zaro nisbatini yoritib bering.
49.	O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik institutlari.
50.	Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi va uning konstitutsiyaviy asoslari.

51.	Yuridik shaxs tushunchasi va uning turlari haqida ma'lumot bering.
52.	Avokatlik va sudyalik kasbini egallash uchun qo'yilgan talablarni tushuntiring.
53.	O'zbekiston Respublikasida jamiyatning iqtisodiy negizlari.
54.	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishi mumkin deganda nimani tushunasiz.
55.	Jamoatchilik nazorati tushunchasi va mazmunini tahlil qiling.
56.	Fuqarolarning davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligini tahlil qiling.
57.	Yuridik faoliyatda deduktiv, induktiv va analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning ahamiyati.
58.	Fuqarolarning o'z ijtimoiy faolliklarini miting, yig'ilish, namoyish orqali amalga oshirish huquqiga ega ekanligini tushuntirib bering.
59.	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari haqida nimalarni bilasiz.
60.	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari va turlarini tushuntiring.
61.	Kasaba uyushmalari deganda nimani tushunasiz? Kasaba uyushmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini aytib bering.
62.	Siyosiy partiyalar deganda nimani tushunasiz? Siyosiy partiyalar faoliyatining konstitutsiyaviy - huquqiy asoslarini batafsil muhokama qiling.
63.	Jamoat birlashmalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari va huquqiy asoslarini yoritib bering.
64.	Nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy maqomini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida muhokama qiling.
65.	Siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish tartibi va o'ziga xos xususiyatlarini konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan ochib bering.
66.	O'zbekiston Respublikasida demokratik institutlar tizimida ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyatini yoritib bering. Ommaviy axborot vositalarini tartibga soluvchi huquqiy asoslarga to'xtalib o'ting.
67.	Ommaviy axborot vositalari tushunchasiga qonun hujjatlarida qanday tar'rif berilgan va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini yoritib bering.
68.	Ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini batafsil muhokama qiling.
69.	O'zbekiston Respublikasida oila institutining konstitutsiyaviy maqomini batafsil yoritib bering. Oilaning jamiyat va davlat hayotidagi o'rnini yoritib bering.
70.	Ota-ona va farzandlarning burchlari deganda nimani tushunasiz? O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq ota-ona va farzandlarning burchlari mohiyatini muhokama qiling.
71.	O'zbekiston Respublikasida onalik va bolalikni davlat tomonidan muhofaza qilinishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating. Ushbu o'ziga xos xususiyatlarning huquqiy asoslariga to'xtalib o'ting.
72.	O'zbekiston Respublikasida bola huquqlarini muhofaza qilinishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating. Bola huquqlarini tartibga soluvchi huquqiy normalarga to'xtalib o'ting.
73.	Ma'muriy-hududiy tuzilish tushunchasi va uning tamoyillarini atroflicha muhokama qiling. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
74.	Viloyat va shahar ma'muriy-hududiy birlik sifatida ularni o'zgartirish va tugatish tartibining farqli va o'xshash jihatlarini qonun hujjatlariga asoslanib yoritib bering.
75.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hokimiyati organlarini tashkil etilishi tartibini yoritib bering.
76.	Saylov huquqi deganda nimani tushunasiz? Saylov huquqi – fuqarolarning siyosiy huquqi sifatidagi qarashlarga o'z munosabatingizni bildiring.

77.	Aktiv va passiv saylov huquqi deganda nimani tushunasiz? Aktiv va passiv saylov huquqining konstitutsiyaviy asoslari haqida batafsil to‘xtalib o‘ting.
78.	O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida saylov huquqi tamoyillari qay tarzda ifodalangan? Fikringzni huquqiy asoslab bering.
79.	O‘zbekiston Respublikasida saylov organlari va ularning tizimini Konstitutsiya va qonunchilik asosida muhokama qiling. Ularning faoliyat yo‘nalishlarini muhokama qiling.
80.	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini batafsil yoritib bering. Uning faoliyat prinsiplariga to‘xtalib o‘ting.
81.	O‘zbekiston Respublikasida okrug va uchastka saylov komissiyalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini batafsil yoritib bering.
82.	Takroriy ovoz berish va takroriy saylov deganda nimani tushunasiz? Takroriy ovoz berish va takroriy saylovning bir-biridan farqli tomonlarini yoritib bering.
83.	Saylov qonunchiligini takomillashtirish maqsadida mazkur qonunchilikka kiritilgan so‘nggi o‘zgartirishlar mazmuni va ahamiyatini yoritib bering.
84.	Saylovoldi tashviqotida qo‘llanishi taqiqlangan usul va vositalarni qonun hujjatlariga asoslangan holda ochib bering.
85.	Qonun hujjatlariga asoslangan holda saylov jarayonida ishonchli vakil va vakolatli vakilning maqomi hamda vazifalarini sharhlang.
86.	Saylov tizimining konstitutsiyaviy asoslari Konstitutsiyaning qaysi moddalarida ifodalangan? Ushbu moddalarning amaliyotda qo‘llanish tartibiga to‘xtalib o‘ting.
87.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat hokimiyat tizimidagi o‘rnini ko‘rsating. Oliy Majlisning ijtimoiy vazifalarini atroflicha yoritib bering.
88.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlarini tushuntiring.
89.	Qonunchilik tashabbusi huquqining mazmun-mohiyatini tushuntiring. O‘zbekiston Respublikasida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lgan sub‘ektlarni sanab bering.
90.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash tartibini Konstitutsiya va qonunchilik asosida yoritib bering.
91.	Fuqarolikka qabul qilish masalalarini hal etish mexanizmini amalga oshiruvchi organlar, mansabdor shaxslar, tartib-qoidalar misolida tushuntiring.
92.	Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasiga atroflicha to‘xtaling. Shaxsiy huquq va erkinliklarning qanday ko‘rinishlari mavjud?
93.	Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqini ta‘minlovchi maxsus qonun va qonun osti hujjatlar tizimini ko‘rsatib bering?
94.	O‘zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi va «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunlar qaysi turdagi shaxsiy huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan.
95.	Konstitutsiyada qanday siyosiy huquq va erkinliklar belgilangan?
96.	Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolar qanday ishtirok etadi?
97.	Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini qanday shakllarda amalga oshiradi?
98.	Qanday hollarda miting, namoyish va yig‘ilishlar o‘tkazish to‘xtatilishi yoki taqiqlanishi mumkin?
99.	O‘zbekistonda jamoat birlashmalari qanday maqsadda tashkil qilinadi va qanday turlari bor?
100.	Soliq va yig‘imlar to‘lash burchining ahamiyati nimada va ularning mazmunini yoritib.
III Bo‘lim. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas‘uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)	
1	O‘quv adabiyotlari, badiiy adabiyotlarni o‘qishga bo‘lgan qobiliyatlari (o‘qigan

	adabiyotlari asosida)
2	O'qish davrida intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi (hayotiy misollarni keltirish va tushuntirib berish qobiliyati asosida)
3	Shaxsiy yutuqlarga erishganligi (agar mavjud bo'lsa portfolio hujjatlari asosida)
IV Bo'lim. Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi	
1.	O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi qanday va ularning davlat organlari tizimida tutgan o'rni va ahamiyatini ochib bering.
2.	O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudining huquqiy maqomi va faoliyati yo'nalishlarini qonunchilik doirasida muhokama qiling.
3.	Davlat va huquqning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarning plyuralligi.
4.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanish tartibi va huquqiy asoslari haqida gapirib bering.
5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqariladigan normativ-huquqiy aktlarni atroflicha muhokama qilib bering.
6.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis vakolatlarini sanab o'ting. Ushbu vakolatlarning mazmun-mohiyatini batafsil yoritib bering.
7.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati vakolatlarini sanab o'ting. Ushbu vakolatlarni batafsil muhokama qiling.
8.	Huquq normasini norasmiy sharhlash turlari haqida gapiring.
9.	O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi. Fuqarolik tushunchasini tahlil qiling.
10.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining vakolatlarini sanab o'ting. Ushbu vakolatlar mazmun-mohiyatini ochib bering.
11.	Demokratik siyosiy rejim turlarini ko'rsating va ularning alohida o'ziga xos jihatlarini yoritib. Fikringizni amaliy misollar bilan tushuntiring.
12.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat hokimiyat tizimidagi o'rnini ko'rsating.
13.	Xususiy mulkning daxlsizligi va davlat tomonidan himoya qilinishini yoritib bering.
14.	Davlat mexanizmi (apparati)ning tashkil etilishi va faoliyati prinsiplari
15.	Davlat organi tushunchasi va uning turlari haqida ma'lumot bering.
16.	Siyosiy partiyalar deganda nimani tushunasiz. Siyosiy partiyalar faoliyatining konstitusiyaviy va huquqiy asoslarini batafsil muhokama qiling.
17.	Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari va ularning bir biriga yuridik nisbatini tahlil qiling.
18.	Qonun ijodkorligi jarayoni: tushunchasi, prinsiplari va bosqichlarini tahlil qiling.
19.	O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga nisbatan ishonchsizlik votumi berish qanday tartibda amalga oshiriladi.
20.	Huquq layoqati va muomala layoqatining tushunchalari farqli jihatlarini yoritib bering.
21.	Qonun hujjatlari va qonun osti hujjatlarini tushuntiring.
22.	Huquq tushunchasi va paydo bo'lishi haqida nazariyalar.
23.	Huquqbuzarlikning yuridik tarkibi va ularning ahamiyati.
24.	Huquq shakllari (manbalari) tushunchasi va turlari.
25.	O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv, tuzilish hamda siyosiy rejimining o'ziga xos jihatlarini amaliy misollar yordamida tushuntiring.
26.	Qonunchilik tashabbusi huquqining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
27.	Normativ-huquqiy hujjatlarning vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilishini muhokama qiling.
28.	Huquq normasi tushunchasi va mohiyati haqida ma'lumot bering.
29.	Huquq normasining tarkibiy elementlari hamda ularning normaning tuzilishidagi o'rnini tahlil qiling.
30.	Huquq normalarining turlari va ularning bir-biridan farqi.

31.	Huquqiy ong, huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyat tushunchalarini tahlil qiling.
32.	Monarxiya boshqarish shakli tushunchasi, turlari, belgilari hamda o'ziga xos jihatlarini amaliy misollar bilan tushuntiring.
33.	Huquqiy munosabatlarning tushunchasi, tuzilishi va turlarini batafsil yoritib bering.
34.	O'zbekiston Respublikasida intizomiy jazo tushunchasi va tizimi.
35.	O'zbekiston Respublikasining moliya, pul va bank tizimi haqida fikr yuritib bering.
36.	Sanksiya tushunchasi, turlari va o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering. Turlari bo'yicha qonunchilikdan misollar keltiring.
37.	Huquq normasining tuzilishi: gipoteza, dispozitsiya va sanksiya
38.	Rasmiy sharhlash va uning turlarini muhokama qiling va tushuntirib bering.
39.	Normativ-huquqiy hujjatlarning hudud va vaqt bo'yicha amal qilishini izohlab bering.
40.	O'zbekistonda davlat organlari tizimida sudning tutgan o'rnini ko'rsatib bering. Uning huquqiy nuqtai nazardan tahlil qiling.
41.	Huquq layoqati va muomala layoqati tushunchasi va ularning huquqiy munosabatlardagi ahamiyati.
42.	Birlashgan Millatlar tashkiloti va uning tizimini muhokama qiling.
43.	Huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm tushunchalari mazmuni va mohiyati.
44.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy maqomi va faoliyati yo'nalishlarini qonunchilik doirasida muhokama qiling.
45.	Respublika boshqarish shakli tushunchasi, turlari, belgilari hamda o'ziga xos jihatlarini amaliy misollar bilan tushuntiring.
46.	Davlatning tuzilish shakli tushunchasi, turlari, belgilari hamda o'ziga xos jihatlarini amaliy misollar bilan tushuntiring.
47.	Davlatlarning paydo bo'lishi haqida osiyocha va yevropa yo'llarni tushuntiring.
48.	Subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar tushunchasini tahlil qiling.
49.	Yuridik faktlar tushunchasi va ularning ahamiyatini yoritib bering.
50.	Voyaga yetmaganlarning mehnat qilish huquqini amalga oshirishning huquqiy asoslari.
51.	Voyaga yetmagan shaxslarga qo'llaniladigan jinoiy jazolar tizimi.
52.	Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish tushunchasi va turlari.
53.	O'zbekiston Respublikasida ma'muriy jazo tushunchasi va tizimi.
54.	O'zbekiston Respublikasida jinoiy jazo tushunchasi va tizimi.
55.	O'zbekiston Respublikasida vorislik huquqini tahlil qiling.
56.	Qonun analogiyasi va huquq analogiyasi tushunchalari va ularning bir-biridan farqi.
57.	Huquq normalarini sharhlash tushunchasi va mohiyati haqida ma'lumot bering.
58.	Emansipatsiya tushunchasi va uning asoslari.
59.	Qonuniylik tushunchasi, mohiyati va vazifalarini tahlil qiling.
60.	Yuridik javobgarlik va qilmishning huquqqa xilofligini istisno qiluvchi holatlar haqida gapiring.
61.	Konstitutsiyaviy huquq yetakchi huquq sohasi sifatidagi o'rnini yoritib bering. Fikringizni konstitutsiyaviy normalar yordamida yoritib bering.
62.	Konstitutsiyaviy huquqning jamiyat va davlat qurilishi sohasidagi ahamiyatini huquqiy jihatdan ifodalab bering.
63.	Jahonda konstitutsiyalar paydo bo'lishining asosiy zaruriyati nimada va ular paydo bo'lganidan so'ng qanday ijobiy o'zgarishlar bo'ldi.
64.	Konstitutsiyaviy huquq fanining boshqa huquqiy fanlar bilan aloqasini huquqiy jihatdan asoslab bering. Ushbu aloqadorlik amaliyotda qanday o'z ifodasini topgan.
65.	Konstitutsiyaviy huquq manbalariga nimalar kiradi? Ushbu manbalar nima uchun konstitutsiyaviy huquq manbasi bo'lib xizmat qilishini asoslab bering.
66.	Konstitutsiyaning mohiyati va uning asosiy belgilari nimalardan iborat? Konstitutsiyaning

	funksiyalarini tavsiflab bering.
67.	Konstitutsiyaning qanday turlari mavjud? Konstitutsiyaning turlari bir-biridan mazmun jihatdan qanday farqlanadi.
68.	Mustaqillikning ilk yillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasini ishlab chiqish tarixini yoritib bering. Konstitutsiyaning qabul qilishdagi ijtimoiy zarurat qanday edi.
69.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish tartibini qonunchilik doirasida batafsil yoritib bering.
70.	Hozirgi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga necha marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligini batafsil yoritib bering.
71.	Konstitutsiyaning himoyalash va konstitutsiyaviy nazorat turlarini batafsil yoritib bering. Konstitutsiyaning himoyalash va konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi vakolatli organlarni sanab bering.
72.	Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topishi xususida batafsil mulohaza yuriting.
73.	Konstitutsiya va qonunchilimizda O'zbekiston Respublikasi suverenitetining davlat-huquqiy belgilariga atroflicha to'xtalib, batafsil yoritib bering.
74.	O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va ulardan foydalanish xususida fikr bildiring.
75.	Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi nimalarda namoyon bo'ladi? Mas'uliyat va javobgarlik masalalariga huquqiy tavsif bering.
76.	O'zbek tilining davlat tili maqomi darajasida ko'tarilishi sabablarini ko'rsating. Jamiyat va davlat munosabatlarida davlat tilining ahamiyatiga to'xtalib o'ting.
77.	O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini amalga oshirish deganda nimani tushunasiz va davlat faoliyatining asosiy prinsiplarini yoritib bering.
78.	Xalq hokimiyatchiligi deganda nimani tushunasiz? Xalq hokimiyatchiligining mazmun va mohiyatini batafsil yoritib bering.
79.	Referendum nima? Mamlakatimizda referendumni o'tkazishning huquqiy asoslarini aytib bering.
80.	Davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi deganda nimani tushunasiz? Ushbu prinsipning mazmun va mohiyatiga to'xtalib bering.
81.	O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti ekanligi nimalarda namoyon bo'ladi? Fikringizni batafsil izohlab bering.
82.	Mamlakatimizda yuridik javobgarlik masalalari xususida fikr yuriting.
83.	Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi deganda nimani tushunasiz? O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlanish masalalariga atroflicha to'xtalib bering.
84.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq tashqi siyosatning asosiy prinsiplari qanday? Ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
85.	Inson va fuqarolarning huquq va burchlari deganda nimani tushunasiz? Inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutlarni keltiring.
86.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, shaxsni sudning qarorisiz ushlab turish asoslarini atroflicha muhokama qiling.
87.	Huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy cheklanishi asoslari va tartibini yoritib bering.
88.	Siyosiy huquq va erkinliklar tushunchasini yoritib bering. Siyosiy huquq va erkinliklarning qanday ko'rinishlari mavjud.
89.	Fuqarolarning asosiy burchlarini tasniflab, mazmunini ochib bering.
90.	Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasiga atroflicha to'xtalib bering. Shaxsiy huquq va erkinliklarning qanday ko'rinishlari mavjud.
91.	Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tushunchasini yoritib bering. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarning qanday ko'rinishlari mavjud.
92.	Iqtisodiy tizim deganda nimani tushunasiz? O'zbekistonda iqtisodiy tizimning

	konstitutsiyaviy asoslarini muhokama qiling.
93.	Mulk deganda nimani tushunasiz? Mulk shakllarining tengligi va daxlsizligi xususida o'z fikr-mulohazalaringizni bering.
94.	Umummilliy boyliklardan foydalanish xususida o'z fikr-mulohazalaringizni bering. Umummilliy boyliklarning davlat muhofazasi qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi.
95.	O'zbekiston Respublikasining Bank tizimi yoritib bering.
96.	Normativ shartnomalarni huquqning asosiy manbai sifatida.
97.	Fuqarolikka ega bo'lish va yo'qotish asoslarini ko'rsatib bering. Bu asoslar amaliyotda qayday o'z ifodasini topgan?
98.	O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatning taqiqlanishi va uning huquqiy muhofazasi.
99.	Mulkka egalik qilish, foydalanish, tasarruf qilish, mulkdan mahrum qilish deganda nimani tushunasiz? Ushbu tushunchalarga huquqiy jihatdan tavsif bering.
100.	O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan, ratifikatsiya va denonsatsiya qilish masalalarini yoritib.